

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.A.Axrorova</b> «Yosh» tushunchasining lingvistik talqini .....	317
<b>G.M.Xoшимов</b> Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
<b>N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov</b> Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida .....	329
<b>M.Sharipova</b> Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili .....	334
<b>A.O'.Abdullayev</b> Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
<b>O'.A.Xudoynazarova</b> Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar .....	344
<b>F.R.Turg'unova</b> Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish .....	349
<b>M.A.Abduvaxobova</b> Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir .....	354
<b>M.A.Kurbanov</b> Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
<b>M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova</b> Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish .....	364
<b>M.Karimov</b> "O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari .....	368
<b>X.P.Murtozoev</b> Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
<b>N.N.Odilova</b> A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature .....	384
<b>M.B.Shamsiyeva</b> Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
<b>I.T.Rustamov</b> Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni .....	392
<b>K.Yu.Feruz</b> Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности .....	396
<b>S.Э.Саидова</b> Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
<b>G.A.Komilova</b> Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi .....	406
<b>S.Ч.Мачитова</b> Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони чомӣ.....	410
<b>M.A.Matmusayeva</b> Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida .....	419
<b>Y.Sh.Shuxratova</b> Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir .....	423
<b>H.H.Xoldorova</b> Study of the concept of "Field" in modern linguistics .....	426
<b>D.I.Mirzayeva</b> Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
<b>K.T.Israilova</b> Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K: 811.111`373.46.881

## RAMZLARDA SHAKL VA MAZMUN MUNOSABATLARI

## ОТНОШЕНИЯ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В СИМВОЛАХ

## RELATIONSHIPS BETWEEN FORM AND CONTENT IN SYMBOLS

Abdullayev Akmaljon O'ktamovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek tilidagi leksik vositalar orqali ifodalash ramzlarda paradigmatic munosabatlar tahliliga tortilgan. Xususan, ramzlardagi sinonimiya, antonimiya, ko'p ma'nolilik, ko'p funksiyalilik hodisalari o'rganilib, ularning o'ziga xos ekanligi asoslandi.

**Abstract**

The article analyzes paradigmatic relations in symbols expressed by lexical means of the Uzbek language. In particular, the phenomena of synonymy, antonymy, polysemy, polyfunctionality of symbols were studied and their uniqueness was substantiated.

**Аннотация**

В статье анализируются парадигматические отношения в символах, выраженных лексическими средствами узбекского языка. В частности, были изучены явления синонимии, антонимии, полисемии, полифункциональности символов и обоснована их уникальность.

**Kalit so'zlar:** ramz, leksema, paradigmatic munosabat, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, shakldoshlik, ko'p ma'nolilik.

**Key words:** symbol, lexeme, paradigmatic relations, synonymy, antonymy, homonymy, polysemy.

**Ключевые слова:** символ, лексема, парадигматические отношения, синонимия, антонимия, омонимия, полисемия, многозначность.

**KIRISH**

Ramzlarning ma'no ifodalash xususiyati leksemalarga o'xshaganligi sababli ularda leksema xos bo'lgan qator belgilarni uchratish mumkin. Jumladan, ramzlarda ham ma'no jihatdan bir xillilik yoki yaqinlik, ma'nolarning zidligi, turli mazmundagi ramzlarning shaklan bir xil kelishi holatlari kuzatiladi. Bu kabi xususiyatlar leksemalarda ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, shakldoshlik kabi hodisalar, deb qaraladi. Alohida qayd etish kerakki, til birliklarida bo'lganidek, ko'p ma'nolilik, ko'p vazifalilik hodisalari ham ramzlarda uchrab turadi. Biroq bu hodisalar ramzlarda biroz boshqa ko'rinishda namoyon bo'lishi, ularni alohida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ko'pma'nolilik ramzlarni boshqa belgi turlaridan farqlovchi asosiy xususiyat hisoblanadi. Bir vosita yordamida bir necha ramziy ma'no ifoda etilishi, ushbu hodisada shakl va ma'no munosabatlarining o'ziga xos bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, **yulduz** – orzu, armon, go'zallik, yo'l boshlovchi, yo'l ko'rsatuvchi kabi qator ramziy ma'nolarda qo'llanishi mumkin. Ushbu birlik har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatordan joy olishi, muvofiq ma'nolar bilan zidlanishi mumkin. Ishimizda ushbu o'ziga xoslikni e'tiborga oldik.

So'z leksik ma'nolarida paradigmatic munosabat semantik jihatdan qaralganda, tilshunoslikda so'zlar ma'no bir xilligi va ma'no qarama-qarshiligi nuqtayi nazaridan guruhchalarga bo'lib tadqiq etiladi. Aytish lozimki, "leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabatlardir" [2,138]. Ramzlarda sanab o'tilgan munosabatlarning deyarli barchasi mavjud bo'ladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sinonimiya hodisasi leksemalarning "shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalashi" [2,138] asosida yuzaga chiqadi. Sinonim leksemalar orasidagi



munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Birdan ortiq soʻzning oʻzaro sinonim boʻlishi uchun asosiy shart sifatida ulardagi maʼnoning aynan bir xilligi, oʻzaro yaqinligi yoki oʻxshashligi kabilar aytiladi. Yaʼni sinonimiyada soʻzlarning maʼno munosabati uni belgilovchi asosiy shart hisoblanadi. Ramzlarda ham sinonimiya hodisasi kuzatiladi. Masalan, *qaldirgʻoch*, *tuma* obrazlari bahorning, yaʼni yangi kunning darakchilari sifatida ramziy maʼno ifodalaydi. *Olma*, *roʻmolcha*, *atirgul*, *qizil gul*, *yurak* kabilar muhabbatni ramzlashtiradi. Koʻrinadiki, shakli va mazmuni turli boʻlgan leksemalar ramziy maʼnolari bilan bir sinonimik qator tashkil eta oladi. Aytish lozimki, ramzlardagi bu hodisa leksemalardagi sinonimik munosabat bilan umumiylik hosil qilishi mumkin, lekin qator xususiyatlar bilan farqlanishi aniqlandi. Ramzlardagi sinonimik munosabatni ifodalanayotgan ramziy maʼnolar doirasida koʻrib chiqish maqsadga muvofiq.

Ramzlarda sinonimik munosabatlarni ifodalovchi vositalarning oʻzi ham maʼlum bir sinonimik qatorda joylashgan boʻlishi ham, maʼnosida umumiylik boʻlmasligi ham mumkin. Shu asosida ramzlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Masalan,

1) ifodalovchi ham, ifodalanuvchi ham maʼnodoshlik hosil qiluvchi ramzlar. Ushbu guruhga mansub ramziy vositalarda ifodalovchilar oʻzlari ham maʼnodosh boʻlib, bir sinonimik qatorga mansub birliklardan tashkil topadi. Ularning ramziy maʼnolari bilan oʻzaro bir xil yoki maʼnodosh boʻladi. Masalan, *barg*, *yaproq*; *buloq*, *chashma*; *asal*, *bol* kabilar.

Koʻnglim chamaniga *bargin* toʻkar kuz,  
Men seni izlayman ismsiz sevgim...

(M.Yusuf, "Qizil gul")

Soʻrida yakandoz ezilgan yomon.  
Xontaxta ustida sargʻaygan *yaproq*...

(I.Mirzo, "Aza")

"Barg", "yaproq" obrazlari sheʼriyatda noziklik, moʻrtlik, umr, dil izohi yoziladigan lavha kabi qator ramziy maʼnolarni ifoda etadi. Yaproqning sargʻayishi yoki kuzda toʻkilishi umming yakun topishini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misolda "barg", "yaproq" leksemalari xuddi shu ramziy maʼno ifodalangan. Shu bilan birga, barglarning erta toʻkilishi umidlarning soʻnishi. Umning erta xazon boʻlishi kabilar ramziy maʼnolarni ham bildiradi. Ushbu maʼnolar "barg", "yaproq" leksemalari tomonidan birdek ifodalanishi mumkin Masalan,

Oʻynab-oʻynab toʻkildilar *yaproqlarim*,  
***Yaproqlarim*** birin-ketin ketaverdi...

(I.Mirzo, "Azoblarim")

Yomgʻirman deb yuzing silab, ***bargingni***  
Toʻkib ketgan doʻlmasmu u aldagan?..

(M.Yusuf, "Ayt")

Yuqoridagi parchalarda "yaproq" va "barg" leksemalari umning ramziy maʼnosi sifatida qoʻllangan.

2) faqat ifodalanuvchi maʼno ramziy maʼno bildiruvchi. Ushbu guruhga ifodalovchisi turli lugʻaviy maʼnoga ega va boshqa paradigmaga mansub, faqat ifodalanayotgan ramziy maʼno bir xil yoki maʼnodosh boʻlgan birliklarni kiritish mumkin. Boshqacharoq aytganda bir ramziy maʼno, bir necha birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, ***tinchlik*** ramzi sifatida *kabutar*, *ayol*, *oq rang*, *kulgi* (*goʻdak kulgisi*), *tuma* kabi oʻzar maʼnodosh boʻlmagan leksumalar qoʻllanishi mumkin. Koʻrinadiki, bir ramziy maʼno ifodalovchilar lugʻaviy maʼnolari turlicha boʻlgan mustaqil leksemalardan tashkil topmoqda.

Aytish kerakki, badiiy adabiyotda ramziy vositalar maʼnodosh sifatida koʻp oʻrinlarda qoʻllanilgan. Masalan, yangi kun, yangi umid, umning boshlanishi, hayot kabi tushunchalar "bahor", "tong" leksemalari orqali ramzlashtiriladi. Tushkun kayfiyat, umr yakuni kabi tushunchalar esa, "kuz", "xazon", "keksa daraxt" kabi obrazlar orqali ifodalanadi.

Gul ***bahoring*** nurli jilvasi  
Soʻngsiz sevinch baxsh etdi qalbga...

(A.Oripov, "Bahor")

***Tongni*** ham osmonga jim boqib kutdim,  
Kuzatdim birma-bir yulduzlarni ham.



## TILSHUNOSLIK

Iltilfot qilmasak, jajji bahorga,  
Nuroni **kuz** bizni siylamas, axir.

(A.Oripov, "...")

Bir hikmat o'qiyman **xazonlarda** men:  
"Yashagin-u, biroq yaproq bo'lma sen".

(A.Oripov, "...")

(A.Oripov, "Kuz xayollari")

Keltirilgan she'riy parchalardagi "bahor", "tong" leksemalari hayotning boshlanishi, "kuz", "xazon" leksemalari umning yakunini ramzlashtirmoqda.

Quyidagi misollarda ham "tog" va "chinor" leksemalari bir xil ramziy ma'no – mag'ururlik, qaddi tiklik, mehribonlik kabi tushunchalarni ramzlashtiradi:

Milyon yilda meni yaratdi hayot,  
Meni so'rab, **tog'lar** qator cho'kdi tiz.

(I.Mirzo "Yolg'iz")

Sen — shoxlari osmonlarga  
Tegib turgan **chinorim**,  
Ota desam, O'g'lim deb,  
Bosh egib turgan **chinorim**.

(M.Yusuf, "Vatanim")

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda shuni aytish lozimki, tilimizdagi ma'noviy sinonimlar, ya'ni ma'nolari ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi sinonimlarda ramziylikning ifodalanishi o'ziga xoslikni tashkil etadi. Ayrim sinonimik qatoridagi ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi leksemalarning har biri ba'zan alohida tushunchalarni ramzlashtirishi mumkin. Bunday holat gradunomik munosabat hosil qilgan ma'nodosh so'zlarda ko'proq uchrashi aniqlandi. Masalan, chol, keksa, qariya, qari, mo'ysafid, oqsoqol, boboy sinonimiy qatoridagi leksemalar uslubiy jihatdan farqlanib, ma'nolarida katta farq sezilmadi. Lekin, shabada, yel, nasim, shamol, bo'ron sinonimik qatoridagi leksemalar ham uslubiy, ham ma'noviy jihatdan farqli tomonlarga ega, shuningdek, ma'nolar orasida gradunomik munosabat mavjud. Aynan shu kabi leksemalar matnda turli ramziy ma'no ifodalashi mumkin. Bunda, **shabada** (shabboda) – mayinlik, xush xabar yetkazuvchi, **yel** - beozorlik, **shamol** – buzg'unchi, uchirib ketuvchi, ta'qib qiluvchi, **bo'ron** – kuch-qudrat, shiddat, vayronkorlik kabi tushunchalarni ramzlashtiradi. Masalan,

Uvolingni kim oladi, kapalak,  
Qay qo'l bilan tutay qotil **shamolni**?

(M.Yusuf, "Kapalak")

Shunda asal isin tuydi dumog'im,  
Ko'rdim – **yellar** yelar kapalak quvib.

(I.Mirzo "Shunda")

Shu kabi olov tabiat hodisasi sifatida graduonimik mohiyatga ega. Modifikatsion semaning kuchli-kuchsiz darajalanishi (graduonimiyasi)ga ko'ra olov ikki xil: a) kuchli darajali; b) kuchsiz darajali semalarda qo'llanadi. Ya'ni olov miqdori, shiddati, ko'lami, tezligi, yo'nalishi, hosil bo'lish o'ri, kuchiga qarab turli nomlar bilan atab kelinadi. Masalan, olov, otash, alanga, gulxan, cho'g', uchqun singari. Ushbu semalar orqali angashilgan ramziy ma'nolar ham o'zaro farqlanadi. Olov – kuydirib yo'q qiluvchi, og'ir sinov, gulxan – issiqlik beruvchi, istituvchi, yomon odatlarni kuydiruvchi, cho'g' – ulkan ishlarning debochasi, "xamirturushi" kabilarni ramzlashtiradi.

Ramzlarning ko'p ma'noligi sababli sinonimiya hodisasi matndan ko'zlangan maqsad bilan yoki matn mazmunidan kelib chiqib, shartlilik asosida yuzaga chiqishini xulosa qilish mumkin. Fikrimizga misol tariqasida noziklik ma'nosini ramzlashtirish uchun *g'uncha*, *shalola*, *kapalak*, *ojizlik* ramzi sifatida *qushcha*, *ohu*, *jayron*, *polapon*, *jilg'a*, *saxovat*, *tantilik tushunchasini ramzlashtirish uchun quyosh*, *kuz*, *dehqon*, insonga vafodorlik ramzi bo'lib, *it*, *kuchuk*, *ot*, o'zaro vafodorlik ramzi sifatida *oqqush*, *kabutar* kabilarning ma'nodosh shaklda qo'llanilishini keltirish mumkin.

Ayrim tushunchalarning ramziy ifodasi sifatida mashhur tarixiy shaxslarning nomlari ham inson shuurida mustahkam o'rin egallagan. Ularda mavjud boshqalarda uchramaydigan va boshqalardan alohida ajratib turadigan xususiyatlar, ushbu shaxslar nomlarini ramz darajasiga



ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Masalan, Hotamtoy – saxiylik, saxovat, Ayub alayhissalom – sabrlik, Yusuf alayhissalom – go'zallik, Jaloliddin Manguberdi – vatanparvarlik, Shiroq – Vatan uchun fidoyilik kabi tushunchalarni ramzlashtiradi. Ushbu nomlar o'zlari ramzlashtirayotgan ma'nolarni ramziy ifoda etuvchi boshqa vositalar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi.

**Antonimiya** – zid ma'nolilikka asoslanib, "bir juft so'zning o'zaro leksik ma'nolari munosabatida yuzaga chiqadi"[1, 215]. Ma'nolarning o'zaro qarama-qarshiligi, o'zaro zidlashishi hodisasi ramzlarda ham uchraydi. Boshqacharoq aytiladigan bo'lsa, ramziy ma'no ham o'zaro zidlashishi mumkin. Masalan,

Ikki qayiq boshin tutgan bo'lar nobud:

Birisining ismi – **beshtik**, biri – **tobut**.

(I.Mirzo, "Men")

Mazkur misralarda keltirilgan "beshtik" leksemasi tug'ilish, tiriklikni, "tobut" leksemasi – o'limni ramziy ifoda etadi. Bu ikki leksema matn doirasida zidlikni yuzaga keltirgan bo'lib, bu zidlik ramziy ma'noning kuchaytirilishiga, ramziy tushunchaga aniqlik kiritilishiga xizmat qiladi. Shunday aytish mumkinki, zidlik o'z o'rnida ramziy ma'nolarning yuzaga kelishiga xizmat qilishi mumkin.

Ramzlardagi antonimiya hodisasi tahlil etilganda, sinonimlarda kuzatilgani kabi ayrim antonimik mohiyatli juftliklarni tashkil etgan leksemalarga o'zlari ham, ramziy ma'nolari ham zid ma'noda qo'llanishi mumkinligi, ayrim hollarda faqat ramziy ma'nolargina zidlashishi holatlari aniqlandi. Jumladan, *kun-tun*, *oq-qora* kabi juftliklarda leksema ham, uning ramziy ma'nolari ham antonimik munosabatda bo'la oladi:

**Qora** bulutlarning ortidan **oppoq**

Bulutlar keladi purviqor suzib...

(U.Azim. "...")

Ko'rinadiki, "qora" leksemasi yomonlik, "oppoq" leksemasi yaxshilik, ezgulik tushunchalarini ramziy ifoda etmoqda. Bu yerda ham aytish mumkinki, zidlik ramziy ma'noning yuzaga chiqishida yetakchilik qilmoqda.

Ramzlardagi antonimiya hodisasi ko'p o'rinlarda shartlilik asosida, ya'ni matn doirasidagina yuzaga chiqishi kuzatildi. Leksema sifatida ma'nolari zidlashmagan birliklar ma'lum matn talabi bilan qarama-qarshi ramziy ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Qo'rquv zo'r kelgan yurtda

**Arslonlar kuchuk** bo'lur.

(E.Vohidov, "Uch bayt")

Yorab, qay kun **bargday** yashnoq,

Umrinni qafas bildim.

Qaro tuproq ostidagi

**ildizni** havas bildim...

(U.Azim, "Yangilanish")

Misollardan ko'rinadiki, "arslon – kuchuk", "barg – ildiz" juftliklari matndan tashqari holatda zidlikni hosil qilmaydi. Yuqoridagi misralarda matn talabi bilan ushbu birliklar o'rtasida antonimiya hodisasi yuzaga kelgan.

Shu bilan birga, bahor-qish, kuz-bahor, tong-tun, bulbul-to'ti, ohu-sayyod, qora bulut-yorqin shafaq, gul-xazon, so'qmoq-katta yo'l, ummon-jilg'a kabi juftliklar bir matn doirasida o'zaro zid qo'llanadi,

Men quyosh yuzlimga deb, **tun-kechalar** berdim yurak,

Oqibat otganda **tong**, qondir yurak ketmoqdaman.

(A.Oripov, "Ketmoqdaman")

**Sayyod** jabri senga bermaydi imkon,

Sen ham oshiqmisan yoki, **ohujon?**

(A.Oripov, "Ohu")

Go'dak nafasidek yupatar yuzni

**Qish** bo'yi kutgan **bahorim**.

(A.Oripov, "Bahor shamoli")

Yuqorida keltirilgan juftliklarda ifodalangan ramziy ma'no, aytib o'tilganidek, faqat bir kontekst doirasida bo'lib, matndan tashqarida ular o'zaro zid ma'no ifodalamaydi.



## TILSHUNOSLIK

Ramziy ma'noda qo'llangan vositalarning aniq ramziy ma'nosi faqat matn tarkibida biror-bir ma'noga zidlanganda aniqlashadi. Boshqacha aytganda, ramziylik boshqa vositaga qiyosan, aniqrog'i, ma'nolarni zidlash orqali topiladi. Masalan,

**Olmali** bog'ga kirib,  
**Shaftolini** yermu kishi?  
 O'z yori uyda turib,  
 Begonani dermu kishi?

(Xalq og'zaki ijodi)

"Shaftoli" leksemasi xalq og'zaki ijodi namunalari olмага qiyosan ishlatiladi va bevafo yor ramziy ma'nosini ifoda etadi. Folklorshunos Sh.Turdimovning qayd etishicha, "qo'shiqda olma ramzining keng yoyilgan ma'nosi sevgi, muhabbatdir. Shaftoli obrazi bu poetik ma'noga zid "qalbaki muhabbat, o'tkinchi sevgi" mazmunida keladi. Natijada, shaftoli va olma o'zaro antonim ramzlarga aylanadi"[5, 73].

Ramzlarda antonimiya haqida fikr yuritganda ambivalentlik hodisasi haqida to'xtalish zarur bo'ladi. Ambivalentlik tushunchasi Yevropa olimlari Z.Freyd, K.Yung va boshqalarning analitik psixologiya maktabida keng o'rganilgan va fanga olib kirilgan bo'lib, ushbu tushuncha ostida o'zaro qarama-qarshi, bir-birini inkor etuvchi ma'no-mazmunning bir vosita orqali ifodalanishi nazarda tutiladi[3, 132]. Psixologiyada ambivalentlik bir xil obyektga nisbatan o'zaro qarama-qarshi his-tuyg'ularning bir paytda mavjudligi tushuniladi. Adabiyotlarda ramzlarda ambivalentlikning mohiyati o'zgaruvchanlik va doimiylik, shakl va mazmun, bir xillik va har xillik, yagonalik va umumiylik, aniqlik va mavhumlik, cheklanganlik va cheksizlik kabi qarama-qarshiliklarning birligidan iboratligi aytib o'tiladi. Olim M.Eliade ambivalentlikni "ramzda ifodalanadigan turli ma'nolarning bir paytdaligi" [7, 393] deb ta'riflaydi. O'zbek tilida mavjud ramzlarda ham ushbu hodisa kuzatiladi. Jumladan, **quyosh**, **olov** obrazlari – mehribonlik (iliqlik beradi) yoki shafqatsizlik (kuydiradi), **ilon** obrazi – davolovchi (tibbiyot ramzida) – zaharlab o'ldiruvchi kabi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ramziy ma'nolarni ifodalab keladi. Ushbu xususiyatlardan nutq jarayonida faol foydalaniladi. Quyidagi matnlarda **it** obrazining – sadoqat va xiyonat tushunchalarini ramzlashtirganini ko'rishimiz mumkin:

**Sadoqat ramzi sifatida:**

Ona, senga nafim tegmadi hatto,  
 Ostonang qo'rigan **kuchugingcha** ham.  
 Sodiq o'shal **itni** do'stdek qucharman...

(M.Yusuf, "Qadahso'z")

**Hiyonat ramzi sifatida:**

**It** semirsa, egasini qopar.

(O'zbek xalq maqoli).

Yuqoridagilar bilan birga, **it** obrazi xorlik ("itga it o'limi", "itdek xor bo'lmoq"), past tabqalilik ("itning boshi mis tovoqqa chiqmoq") kabi ma'nolarni ramzlashtirish holatlari xalq og'zaki ijodida, frazeologik birliklarda uchrab turadi.

Tilshunos M.Mirtojiyev zid ma'nolarning yuzaga kelishi haqida fikr yuritib, "so'zlarning polisemantik bo'lishi, ya'ni so'zlarning semantik taraqqiyoti shunday holatlarni ham keltirib chiqaradiki, unda ikki so'z genetik ma'nosi bilan emas, navbatdagi figural ma'nolarining biri bilan o'zaro antonimlik qiladi", deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, oq va qora so'zlari rang bildiruvchi genetik ma'nolariga ko'ra emas, oq so'zi "gunohsiz", qora so'zi "gunohkor" figural ma'nolariga ko'ra o'zaro antonimdir[1, 219]. Ta'kidlanadigan joyi shuki, yuqoridagi ikki so'zning birgina figural emas, qator ramziy ma'nolarida ham o'zaro qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Ma'nodoshlik, zid ma'nolilik hodisalari kabi **ko'p ma'nolilik hodisasi** ham ramzlar semantikasida alohida o'rin tutadi. Polisemiya ramzni belgining boshqa turlaridan farqlovchi asosiy xususiyatlaridan biri ekanligi haqida yuqorida qisman aytib o'tildi. Polisemiya ma'lum bir so'zning bir necha leksik ma'noga ega bo'lishi deb qaraladi.

Til birliklarining polisemiyasi hodisasi til elementlarini bosqichma-bosqich qayta nomlash jarayonlarini amalga oshirish uchun zamin yaratadi. So'zning semantik tarkibiga yangi ma'nolar qo'shish va shakl elementlarining funksional doirasini kengaytirish jarayonlari tilda yangi tushunchalarni hosil qilishning ilg'or usuli hisoblanadi [4,23]. Tilda polisemiya muqarrarligini "bir tomondan, bilishning cheksizligi, ikkinchi tomondan, lisoniy belgilarning chegaralanishi bilan izohlash



mumkin"[6, 102]. Shu kabi ramzlarda ham bir vosita orqali bir necha ramziy ma'nolarning talqin qilinishi, bu ma'nolarning esa son jihatidan ortib borishi til va jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ramzning polisemantik tabiati uning doimiy ravishda yangi ma'nolar bilan to'yinib borishi, voqelikning yangi hodisalarini o'zlashtirish qobiliyatining mavjudligini anglatadi. Ramzning ko'p ma'noliligi - bu ushbu hodisada semantik istiqbolning, ma'no zanjirlarining mavjudligi, shuningdek, uning yakuniy, asosiy ma'nosini anglab yetishning imkonsizligi hisoblanadi[3, 104].

O'zbek tilidagi **tarozi** (adolat ramzi), **qalqon** (mustahkam himoya ramzi) kabi leksemalar, odatda birgina ma'no ifodalash bilan cheklanadi. Biroq aksariyat ramziy ma'no ifoda etuvchilar ikki va undan ortiq ramziy ma'noga ega bo'ladi. Masalan, **tog'** – mag'rurlik, yuksaklik, vazniy og'irlik, zalvor, himoya-to'siq; **yulduz** – ushalmagan orzu, sirdosh, o'jizlik; **tong** – yangi kun, yangi umid, yorug'lik, hayotning boshi; **tun** – yomonlik, qabohat, zulmat, umr yakuni kabi ma'nolarni ramzlashtiradi.

Ularning ma'nolari esa matn bilan bog'liq holda turlicha ifodalanadi. Masalan, kuz bir o'rinda umrning yakuni sifatida ramziy ma'no ifodalasa, bir o'rinda to'kinlik va sahoat tushunchalarining ramziy ifodasi bo'lib keladi. Xazon bir matnda hokisorlik bo'lsa, bir o'rinda umr yakuni ma'nosini ramzlashtiradi.

O'zbek tilidagi yaproq, shamol, nay, buloq, burgut, bo'ri, dengiz, oy, hilol, chinor, oftob, kapalak, yalpiz kabi obrazlar bir necha tushunchalarni ramzlashtirgan bo'lib, ular polisemiya hodisasiga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, bo'ri matn talabi bilan vaxshiylik, laqmalik, mardlik kabi ma'nolarni ramzlashtirishi mumkin.

Polisemiya haqida so'z yuritilganda, ramzlarning polifunksionallik (ko'p vazifalilik) xususiyati to'g'risida ham fikr bildirish lozim. Ilmiy adabiyotlarda so'zlar polifunksionalligi konversiya bilan bog'liq ekanligi, ya'ni ma'lum bir so'zning hech qanday qo'shimcha olmagan holda boshqa so'z vazifasida kelishi hodisasi ekanligi aytib o'tiladi. Ramzlarda ushbu hodisa biroz boshqacha tus oladi. Ma'lum bir tushunchaning ramziy ifodasi o'z mazmunini saqlagan holda belgi (ko'chim) ning boshqa bir turi vazifasini bajaradi. Masalan, yuqori kuchlanishga ega bo'lgan qurilmalarda inson bosh chanog'ining tasviri aks ettiriladi. Mazkur tasvir o'lim ramzi bo'lib, qurilmaning hayot uchun xavfli ekani haqida ogohlantiradi. Ko'rinadiki, ramziy vosita bir paytning o'zida belgining boshqa turi – signal vazifasini bajarishi bilan birga, ramziy ifodasini ham ro'yobga chiqarmoqda.

Xuddi shu kabi avtomobil yo'li yoqasida joylashgan xonadonlarda marosim o'tkazish paytida ehtiyot chorasi sifatida yo'lga qizil yoki ko'k rangdagi mato ilib qo'yiladi. Bu haydovchini odamlar to'planadigan marosim haqida, xushyorlik va ehtiyotkorlikni oshirish zarurligi haqida ogohlantirish belgisi vazifasini bajaradi. Qizil va ko'k ranglar ramziy ma'noda marosimning to'y yoki aza ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonda ham ramzlar o'z ma'nosidan tashqari, shartli belgi vazifasini o'taydi.

Ko'rinadiki, ushbu jarayonlarda sinkretizm hodisasi kuzatiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda lisoniy va nolisoniy birliklar o'rtasidagi polifunksionallik ifodalandi. Lisoniy birliklar o'rtasida ham ushbu hodisa ko'plab uchraydi va ularning barchasida sinkretizm mavjud bo'ladi. Masalan,

Ilk sevgi – eng baland shoxdagi **olma**,

Men unga intildim, yetmadi qo'lim.

(M.Yusuf, "Umrimga...")

Mazkur matndagi "olma" leksemasi metafora bo'lib, ilk sevgini olmaga o'xshatish orqali ma'no ko'chishi yuzaga kelgan. Aytish joizki, **olma** – muhabbat ramzi bo'lib, matndan uning bu ramziy ma'nosi ham to'laligicha namoyon bo'lmoqda. Demak, ramziy vosita matnda ko'chimning boshqa turi, metafora vazifasini ham bajargan. Quyidagi she'riy parchada ham shu kabi holatni kuzatish mumkin:

Osmonni bo'yayman qirmizi rangga

Chap ko'ksingda majruh **lola** uchun ham!

(I.Mirzo, "Sevgilim")

Lola, odatda, tubida qora dog'i bor qizil gul obrazi sifatida dardli muhabbatni ramzlashtiradi. Ushbu matnda mazkur ramziy obraz metafora sifatida insonning dardli yuragini ko'chma ma'noda ifodalamoqda. Ta'kidlanganidek, bu yerda ham ikki hodisaning bir paytda sodir bo'lishi natijasida sinkretizm yuzaga chiqmoqda.



**XULOSA**

Keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ramzlardagi paradikmatik munosabatlar til birliklari o'rtasidagi munosabatlar bilan aynan o'xshash yoki biroz mukammallashgan. Ramzlardagi ma'nodoshlik, zid ma'nolilik ko'p hollarda matn talabi bilan yuzaga kelsa, ko'p ma'nodagi ramzlarning qaysi ma'noda qo'llanishi matn doirasida oydinlashadi. Ushbularni inobatga olib mazkur masalani monografik planda chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek tili: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
3. Гузенко И. Христианская Символика в русском языке: вербализация, функционирование, эволюция. Дисс... канд. филол. наук. – Волгоград, 2009.
4. Дегтерева Т. А. Формы проявления семасиологических законов // Законы семантического развития в языке: сборник; под ред. Т. А. Дегтерева. – М.: Изд-во ВПШ и АОН, 1961.
5. Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020.
6. Чистович Е. П. Реализация лексических значений в контексте. Полисемия и контекст // Реализация значений и контекст. – Л.: Наука, 1975.
7. Элиаде М. Трактат по истории религий: в 2-х тт. пер. с фр. А. А. Васильева. – СПб.: Алетейя, 1999.